

Uzbekistan Airways aviachiptalarini sotish bo‘limi yangilangan formatda o‘z eshiklarini ochadi! Milliy aviatashuvchi yo‘lovchilari interaktiv tarzdagi o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish panellari, Uzbekistan Airways, Uzbekistan Airways Express, Silk Avia reyslari, shuningdek, Uzbekistan Helicopters parvozlariga aviachiptalarni xarid qilish hamda qo‘shimcha xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar!



Parvozlar bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlarga buyurtma berish va aviachiptalarni xarid qilish jarayonlarini yanada qulayroq amalga oshirish maqsadida Uzbekistan Airways Sales sotuv filiali endilikda quyidagi yangi manzil bo‘yicha faoliyat yuritadi: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko‘chasi, 9-uy.



Uzbekistan Airways yangilangan sotuv ofisida yuridik shaxslarga xizmat koʻrsatuvchi chipta kassalari mavjud hamda imkoniyati cheklangan insonlar va yosh bolali yoʻlovchilar uchun alohida sharoitlar yaratilgan. Uzbekistan Airways, Uzbekistan Airways Express, Silk Avia aviakompaniyalarining parvozlariga aviachiptalarni sotish, bron qilish va qayta rasmiylashtirish imkoniyati hamda Uzbekistan Helicopters xizmatlariga buyurtma berishdan tashqari, yoʻlovchilarga Interline va Code-share'ga asoslangan aviachiptalarni rasmiylashtirish xizmatlari ham koʻrsatiladi. Uzbekistan Airways Sales filialining yangilangan binosida oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatish interaktiv panellari ham oʻrnatilgan boʻlib, ular yoʻlovchilarga rasmiy veb-sayt asosida aviakompaniya xizmatlarini mustaqil ravishda xarid qilish imkoniyatini beradi.



Shahar markazida joylashganligi va qulay transport aloqalari tufayli yo‘lovchilar aviakompaniyaning savdo filialiga tez va oson yetib borishlari mumkin bo‘ladi.



Uzbekistan Airways Sales ish vaqti: 08:00 dan 20:00 gacha, tanaffus va dam olish kunlarisiz.

Eslatib o‘tamiz, Amir Temur shohko‘chasi 51-uyda joylashgan Uzbekistan Airways Sales ofisi 16-noyabr kuni cheklangan rejimda ishlaydi, yangilangan ofis soat 12:00 dan (16-noyabrdan boshlab, ochilish marosimidan so‘ng) to‘liq ishga tushdi.

Download PDF